XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 7-noyabr VII-8-86-1-22-K/25 Izboskan tumani

2025 yil uchun belgilangan tuman mahalliy budjetining sifatli ijro etilishi va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lardan yanada samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 28-,146-moddalari, va viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tuman mahalliy budjetiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi bildirishnomalari hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025 yil 15 maydagi “2024-2025 yil uchun belgilangan tuman mahalliy budjetining sifatli ijro etilishi va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lardan yanada samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi 32-61-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025 yil 1 avgustdagi “2025 yil uchun belgilangan tuman mahalliy budjetining sifatli ijro etilishi va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lardan yanada samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi 32-121-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 30 iyundagi 621-sonli bildirishnomasiga asosan tuman mahalliy budjeti daromadlariga kiritilgan o‘zgartirishlar hisobi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga:

Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 10-apreldagi 238-сонли, 15-apreldagi 254-sonli, 2-apreldagi 277-sonli, 18-apreldagi 287-sonli, 22-apreldagi 297-sonli, 28-apreldagi 364-348-sonli,

5-maydagi 405-sonli, 15-maydagi 428-sonli, 28-maydagi 452-sonli, 13-iyundagi 480-496-sonli, 18-iyundagi 523-sonli, 20-iyundagi 537-sonli hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 11, 4, 6, 15, 16, 18, 23, 24, 28, 29, 30 aprel, 1, 6, 7, 13, 14, 16, 20, 21, 26, 27, 28, 29 may va 2, 4, 17, 26, 27 iyun kunlaridagi bildirishnomalariga asosan tuman mahalliy budjetiga kiritilgan o'zgartirishlar 2-ilovaga;

Tuman mahalliy budjetidan mablag' bilan ta'minlanuvchi budjet tashkilotlarining 2025 yil xarajatlarini maqbullashtirilgan o'zgarishlar 3-ilovaga;

Tuman mahalliy budjetidan mablag' bilan ta'minlanuvchi budjet tashkilotlarining 2025 yil xarajatlarini soxadan soxaga kiritilgan o'zgarishlar 4-ilovaga;

4. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi O'RQ-1011-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 25 dekabrdagi PQ-455-son "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori va 2025 yil 27 fevral kungi Vazirlar mahkamada o'tkazilgan muhokama yig'ilishining 6 sonli bayoniga asosan 2025 yilda "tejamkorlik va barqarorlikni ta'minlash" tamoyili asosida budjet mablag'larini tejash va samaradorligini oshirish maqsadida Izboskan tuman mahalliy budjetining 2025 yil uchun tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida budjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larni qayta taqsimlash orqali rejalashtirishga ruxsat berilsin, jumladan:

-2025 yil uchun tasdiqlangan shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini taxlil qilish asosida qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmagan xarajatlarni maqbullashtirish (ortiqcha shtat va xarajatlar), tahliliy o'rganishlarni o'tkazish asosida samarasiz, past samarali va bir-birini takrorlovchi shtat va xarajatlarni maqbullashtirish. Birinchi darajali xarajatlarga kam rejalashtirilgan mablag'lar manbasini aniqlagan holda to'ldirish.

-moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarining normativdan ortiq zahiralarining summalarini kamaytirilishiga;

- bo'shab qolgan va maqbullashtirilgan mablag'lar hisobidan qayta taqsimlashga, budjet mablag'lari doirasida iqtisod qilingan, bo'shab qolgan va maqbullashtirilgan mablag'lar hisobidan budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash, shuningdek, oziq-ovqat, kommunal to'lovlar, dori-darmon, qarzdorliklar va boshqa xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida budjet

tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallariga tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan o‘zgartirishlar kiritishni amalga oshirishga ruxsat berilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 27 fevraldagi 6-sonli (№03-03/1-4456) yig‘ilish bayonida mahalliy budjetdagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hamda past samarali xarajatlarni maqbullashtirish hamda maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan budjet tashkilotlarining ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovlarining yetishmagan qismiga shuningdek, qolgan qismini Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda hal etilishi dolzarb bo‘lgan tadbirlarga yo‘naltirilishi belgilanganligi;

tuman mahalliy budjeti xarajatlarining 2025 yil yanvar-may oylari ijrosi jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 120-moddasi 4-qismiga binoan **1940682.0 ming so‘m** mablag‘lar maqbullashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mahalliy budjetga kiritilgan o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi hamda tegishli budjet muassasalariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  AXMADALIYEV ABRORBEK QOSIMJONOVICH

Xalq deputatlari Izboskan tumani
Kengashining
2025-yil 7-noyabrdagi
VII-8-86-1-22-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025 yil 30 iyundagi 621-sonli bildirishnomasiga asosan hamda xududning transfertlarga bog‘liqligini kamaytirish chora-tadbirlari doirasida tuman mahalliy budjetining daromadlar qismiga kiritilgan o‘zgartirishlar

H I S O B I

(ming so‘mda)

DAROMADLAR			1 chorak	2 chorak	3 chorak	4 chorak
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3141	102		0		0
Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) solinadigan soliq	3112	101		0		0
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	3112	514		0		0
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq	3136	100		0		0
Iktisodiyotning barcha soxalarida to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan mol-mulk soligi (kuyida 102-103 daromad turlaridan tashkari)	3136	101		61,000		-61,000
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq	3131	101		-871,000		871,000
Jismoniy shaxslarning yer solig‘i soliq	3131	204		-698,000		698,000
Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq	3111	100		-2,616,000		2,616,000
Jismoniy shaxslarning ijaraga berilgan mulkidan olingan daromadga solinadigan soliqlar	3111	300		110,000		-110,000
Tadbirkorlar faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar daromadidan olinadigan soliq (patent)	3111	401		97,000		-97,000
Aksiz solig‘i - jami				0		0
Aloka xizmatlari ko‘rsatish uchun aksiz soligidan mahalliy budjetlarga utkaziladigan mablag‘lar	3142	211		0		0
Alkogol mahsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan mahallliy budjetlarga o‘tkaziladigan maxsulotlar	3142	212		0		0

Tamaki maxsulotlari uchun aksiz solig‘idan mahallliy budjetga o‘tkaziladigan mablaglar	3142	213		0		0
Tuman va shaharlar budjetiga undiriladigan ijara to‘lovlari	3421	104		-10,000		10,000
Davlat boji	3422	101		0		0
Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	3422	217		0		0
Boshqa soliq va yig‘imlar	3450	960		0		0
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3145	204		4,000		-4,000
Qishloq xo‘jaligi korxonalari, jumladan, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan dexkon xo‘jaliklari, suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq (Davlat soliq boshqarmasi ma’murchiligidagi soliq tulovchilar buyicha)	3145	210		-360,000		360,000
Suv xo‘jaligi tashkilotlariga taqsimlangan (o‘tkazilgan) suv solig‘i summasi (40%)	3145	299		144,000		-144,000
Yer osti boyliklardan foydalanganlik uchun soliq	3146	101		0		0
Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha	3112	501		-699,000		699,000
Ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig‘i	3112	900		0		0
Yer solig‘i (yagona yer solig‘idan tashqari)	3131	203		-319,000		319,000
Yagona yer solig‘i	3131	208		0		0
Dehqon bozorlaridan bir martalik yig‘im	3413	100		0		0
Jismoniy shaxslar transporti yoqilg‘isi uchun soliq	3141	201		0		0
Jarimalar	3430	105		0		0
Davlat aktivlarini sotishdan mahallliy budjetlarga (Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri) tushumlar	3510	300		0		0
DAROMADLARNING JAMI			**0**	**-5,157,000**	**0**	**5,157,000**
Mahalliy budjetga viloyat budjetidan o‘tkazib beriladigan daromad						
Subvensiya			**0**			**0**
shundan: - xalq ta’limi muassasalarining ish xaqi va YAITlarga						

- bolali oilalar va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalarga						
DAROMADLARNING HAMMASI			**0**	**-5,157,000**	**0**	**5,157,000**

Xalq deputatlari Izboskan tumani
Kengashining
2025-yil 7-noyabrdagi
VII-8-86-1-22-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025 yil 10 apreldagi 238-sonli, 15 apreldagi 254-sonli, 2 apreldagi 277-sonli, 18 apreldagi 287-sonli, 22 apreldagi 297-sonli, 28 apreldagi 364-348-sonli, 5 maydagi 405-sonli, 15 maydagi 428-sonli, 28 maydagi 452-sonli, 13 iyundagi 480-496-sonli, 18 iyundagi 523-sonli, 20 iyundagi 537-sonli hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 1, 4, 6, 15, 16, 18, 23, 24, 28, 29, 30 aprel, 1, 6, 7, 13, 14, 16, 20, 21, 26, 27, 28, 29 may va 2, 4, 17, 26, 27 iyun kunlaridagi bildirishnomasiga asosan tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga kiritilgan o‘zgarishlar hisobi

H I S O B I

(ming so‘mda)

XARAJATLAR	1 chorak	2 chorak	3 chorak	4 chorak
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami				
Maorif		13,797,841	-219,165	-1,425,310
shundan: - umumiy ta’lim		1,011,140	821,134	375,176
- kadrlar tayyorlash		0	0	0
Maktabgacha ta’lim		12912474.65	-1040299.4	-1,926,259
Sog‘liqni saqlash		0	0	0
Madaniyat va ommaviy axborot vositalari		-43046.655	5926	-19,091
Sport		-52813.561	-24255	-59,804
Fan		0	0	0
Ijtimoiy ta’minot		0	0	0
Bolali oilalar va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar		0	0	0
shundan: - voyaga yetmagan bolalari bor oilalarga nafaqa		0	0	0

- bolalari 2 yoshga to‘lguncha onalarga to‘lanadigan nafaqa		0	0	0
- kam daromadli oilalarga beriladigan moddiy yordam		0	0	0
Boshqa xarajatlar (chegara tovon puli)		0	0	0
Fermer xo‘jaliklariga dotatsiya		0	0	0
Davlat mukofotlarini to‘lash bo‘yicha xarajatlar		0	0	0
Ijtimoiy ko‘nikma markazlari		0	0	0
1991 yilgacha qurilgan uylarni kapital ta’mirlash		0	0	0
Isitish qozonxonalari va kommunal xo‘jalikning isitish tizimlarini kapital ta’mirlash		0	0	0
Imtiyozli kontingentdagi kishilarni bepul tashiganlik uchun trolleybus xo‘jaligining zararini qoplash		0	0	0
Iqtisodiyotga xarajatlar		-423,191	2,924,498	-2,269,856
Qishloq xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari		135023.532	-2200	-152,980
Obodonlashtirish		-683987.531	2926698	-1,991,103
Kommundrenaj		0	0	0
Ko‘p kvartirali uylarda liftlarni yangilash va ta’mirlash		0	0	0
Markazlashgan investisiyalarni moliyalashtirish xarajatlari		0	0	0
Davlat boshqaruv idoralari		1177.953	92916.4	-229,974
Nafaqa va ijtiomiy to‘lovlar		0	0	0
Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash		0	0	0
Advokatlik		0	0	0
Zahira jamg‘armasi		0	0	0
Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar (Open budjet)		4072000	0	-4,072,000
PQ-299-sonli qaror bo‘yicha		0	0	0
Daftarlarga ajratilgan mablag‘lar		0	0	0
Mening maktabim (7019909072)		0	0	0
Tuman optimizatsiya (7019999222)		235656.545	155559	667,973

XARAJATLARNING HAMMASI		17,587,625	2,935,479	-7,408,061

Xalq deputatlari Izboskan tumani
Kengashining
2025-yil 7-noyabrdagi
VII-8-86-1-22-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Iqtisod qilingan mablag‘larning maqbullashtirilishi hisobi

ming so‘mda

№	Tip dokumenta	Xarajat moddasi	Yillik	3-chorak	4-chorak
1	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111100	48,960	18360	18360
2	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111230	130,000	117500	7500
3	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	24121100	44,740	33965	6465
4	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	44821180	131,301	0	131301
5	Yoshlar ishlar agentligi	14111230	-20000	-7500	-7500
6	Yoshlar ishlar agentligi	24121100	-5000	-1875	-1875
7	Sport bo‘limi	14111100	-48960	-18360	-18360
8	Sport bo‘limi	24121100	-12240	-4590	-4590
9	Maktabgacha ta’limi tashkilotlari	44252300	-113150	0	-113150
10	Maktabgacha ta’limi tashkilotlari	44354930	-18151	0	-18151
11	Musiqa maktabi	14111230	-110000	-110000	0
12	Musiqa maktabi	24121100	-27500	-27500	0
13	Madaniyat bo‘limi DXSH	44299980	25000	25000	0
14	MMTB DXSH	44299980	295000	165560.3	129439.7
15	Sport bo‘limi DXSH	44299980	22500	22500	0
16	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	44821180	-342,500	0	-342500
17	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111100	88,500	0	70000
18	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	24121100	17,325	0	17325
19	Yoshlar ishlar agentligi	14111100	-70000	0	-70000
20	Yoshlar ishlar agentligi	24121100	-17325	0	-17325
21	Sport bo‘limi	14111100	-18500	0	0
22	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111100	221,326	221325.709	0
23	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111230	6,920	6920	0
24	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	24121100	10,064	10064.258	0
25	Ichki yo‘l	14111100	-32398.609	-32398.609	0
26	Ichki yo‘l	14111230	-6920	-6920	0

27	Ichki yo‘l	24121100	-9784.158	-9784.158	0
28	Sport bo‘limi	14111100	-187935	-187935	0
29	Madaniyat bo‘limi apparat	14111100	-992.1	-992.1	0
30	Madaniyat bo‘limi apparat	24121100	-280.1	-280.1	0
31	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111100	127,000	127000	0
32	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111230	172,360	172360	0
33	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	24121100	62,897	62897	0
34	Veterinariya bo‘limi	14111100	-20000	-20000	0
35	Veterinariya bo‘limi	24121100	-5000	-5000	0
36	Daydi xayvonlarni tutish	14111230	-3991	-3991	0
37	Daydi xayvonlarni tutish	24121100	-988	-988	0
38	Yoshlar ishlar agentligi	14111100	-80000	-80000	0
39	Yoshlar ishlar agentligi	24121100	-20000	-20000	0
40	Drenaj bo‘limi	14111230	-5289	-5289	0
41	Drenaj bo‘limi	24121100	-1309	-1309	0
42	Tashqi yoritish bo‘limi	14111230	-3080	-3080	0
43	Tashqi yoritish bo‘limi	24121100	-762	-762	0
44	Obodonlashtirish boshqarmasi	14111230	-70000	-70000	0
45	Obodonlashtirish boshqarmasi	24121100	-16088	-16088	0
46	Fuqaro xizmati	14111230	-90000	-90000	0
47	Fuqaro xizmati	24121100	-12000	-12000	0
48	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	14111100	-27000	-27000	0
49	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	24121100	-6750	-6750	0
50	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	44821180	359,000	0	359000
51	Maktabgacha ta’limi tashkilotlari	44252700	-359000	0	-359000
52	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	44821180	285,000	0	285000
53	Maktabgacha ta’limi tashkilotlari	44252700	-285000	0	-285000
54	Hokim yordamchilari	14111100	-66412	0	-66412
55	Hokim yordamchilari	24121100	-16437	0	-16437
56	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	14111100	121,274	0	121274
57	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	24121100	30,015	0	30015
58	Iqtisodiyot va moliya maqbullashtirish	44821180	84,000	0	84000
59	Yoshlar ishlar agentligi	14111100	-54862	0	-54862
60	Yoshlar ishlar agentligi	24121100	-13578	0	-13578
61	Maktabgacha ta’limi tashkilotlari	44252700	-84000	0	-84000

Xalq deputatlari Izboskan tumani
Kengashining
2025-yil 7-noyabrdagi
VII-8-86-1-22-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Sohadan sohaga o‘zgartirishlar hisobi

ming so‘mda

№	Bo‘limlar	Yillik	1-chorak	2-chorak	3-chorak
1	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	6513.371	6513.371	0	0
2	Laboratoriya bo‘limi	-1700	0	-1700	0
3	It otish bo‘limi	-639.7	-639.7	0	0
4	Ichki yo‘l	0	-1700	1700	0
5	Obodonlashtirish boshqarmasi	-584.671	-584.671	0	0
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	-300	-300	0	0
7	Fuqaro xizmati	-1186.2	-1186.2	0	0
8	DMTTlar	-1310	-1310	0	0
9	Maktablar	-171.6	-171.6	0	0
10	Maktablar	-121.2	-121.2	0	0
11	BABM	-500	-500	0	0
12	Tuman hokimligi	11000	11000	0	0
13	DMTTlar	-11000	0	-11000	0
14	Tuman hokimligi	3150	3150	0	0
15	Xalq qabulxonasi	-3150	-3150	0	0
16	Tuman hokimligi	25000	25000	0	0
17	Obodonlashtirish boshqarmasi	13677	0	0	13677
18	DMTTlar	-7189.416	-7189.416	0	0
19	DMTTlar	-13677	0	0	-13677
20	DMTTlar	-17810.584	0	-17810.584	0
21	Xalq qabulxonasi	-1650	0	-1650	0
22	Xalq qabulxonasi	-1400	0	-1400	0
23	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	3050	0	3050	0
24	Xalq qabulxonasi	-1800	0	-1800	0
25	Xalq qabulxonasi	-4000	0	-4000	0
26	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	-1463	0	-1463	0
27	Maktablar	-7100	0	-7100	0
28	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	14363	0	14363	0
29	Tuman hokimligi	-9000	0	-9000	0
30	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	9000	0	9000	0

31	Obodonlashtirish boshqarmasi	11034	0	7400	3634
32	DMTTlar	-4400	0	-4400	0
33	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-3634	0	0	-3634
34	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-3000	0	-3000	0
35	Maktablar	39000	0	39000	0
36	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-5000	0	-5000	0
37	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-10000	0	-10000	0
38	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-24000	0	-24000	0
39	Veterinariya bo‘limi	1800	0	0	1800
40	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-1800	0	0	-1800